



UO‘K: 633.1-3.

## SUV TANQISLIGIGA VA SHO‘RLANISHGA BARDOSHLI TURLI OZUQABOP EKINLAR NAV, NAMUNALARINI SINASH

Seitmusayev Bayrambay Abatbayevich

*Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi huzuridagi Qoraqalpog‘iston  
Respublikasi agroxizmatlar markazi*

Kochkarov Farxad Xo‘jamuratovich., Allashov Baxram Davletbayevich.,  
Parmanova Dilnoza Mavlanovna

*Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.17536631>

**Annotatsiya.** Keyingi yillarda uchrayotgan sho‘rlangan tuproqli maydonlar oshib borishi, suv tanqisligi qishloq xo‘jaligi ekinlari, jumladan ozuqabop ekinlar hosildorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib kelmoqda. Bu o‘z navbatida chorva mollari mahsuldorligi kamayib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Buning uchun ozuqabop ekinlarning suv tanqisligiga va sho‘rlanishga bardoshli bo‘lgan yangi boshlang‘ich ashyolar tanlash, yangi navlarni yetishtirish agrotexnikasi ishlab chiqish lozim bo‘ladi. Ushbu maqolada ozuqabop ekinlarning turli xil nav, namunalarini sinash, ayrim qimmatli xo‘jalik belgilari bo‘yicha o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar.** Iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi, sho‘rlanish, ozuqabop ekinlar, hosildorlik, nav, duragay, sinash.

**Аннотация.** В последние годы увеличение площадей засоленных почв и дефицит воды негативно сказываются на урожайности сельскохозяйственных культур, в том числе кормовых. Это, в свою очередь, приводит к снижению продуктивности животноводства. Это требует подбора нового исходного материала для кормовых культур, устойчивого к засолению и дефициту воды, а также разработки агротехнических приемов выращивания новых сортов. В статье представлены результаты исследований, проведенных по испытанию различных сортов и образцов кормовых культур, а также изучению некоторых хозяйственноценных признаков.

**Ключевые слова.** Изменение климата, дефицит воды, засоление, кормовые культуры, урожайность, сорт, гибрид, испытание.

**Abstract.** In recent years, the increase in saline soils and water shortages have negatively impacted the yield of agricultural crops, including forage crops. This, in turn, leads to a decrease in livestock productivity. This requires the selection of new feedstock for forage crops that are tolerant to salinity and water stress, as well as the development of cultivation techniques for new varieties. This article presents the results of research conducted on testing various varieties and samples of forage crops, as well as the study of certain economically valuable traits.

**Keywords.** Climate change, water stress, salinity, forage crops, yield, variety, hybrid, testing.

**Kirish.** Ozuqa bazasini mustahkamlashda ozuqabop ekinlar yetishtirish uchun ajratilgan yer maydonlaridan samarali foydalanish uchun avvalambor tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqib shu yerga mos ekin turi va navini to‘g‘ri



**“OROL BO‘YI SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIK EKINLARI  
SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA AGROTEKNOLOGIYALARIDA  
DOLZARB MUAMMOLAR VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI”  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**



tanlab ekishga eʼtibor qaratish kerak boʻladi. Tuprogʻi unumdor yerlarda makkajoʻxori yoki beda kabi ozuqabop ekinlardan yuqori hosil olish mumkin, ammo ushbu ekinlar suv tanqis, shoʻrlangan tuproqlarda hosildorlik imkoniyatlarini 1 baravardan 4 baravargacha yoʻqotishi mumkin. Bunday sharoitlarda ozuqaviyligi boʻyicha makkajoʻxoriga yaqin boʻlgan oqjoʻxori, Afrika qoʻnogʻi kabi ekinlarni, beda oʻrniga qashqarbeda, esparset kabi ekinlarni ekib yetishtirish orqali har bir gektar yerdan yetishtirib olinadigan ozuqa birligini oshirish mumkin. Shunindек ozuqabop ekinlardan yuqori hosildorlikka erishishda har qanday navni ekishning maqbul meʼyor va muddatlari kabi agrotexnikalarini qoʻllash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Suv tanqisligiga, shoʻrlanishga bardoshli ozuqabop ekinlarni ekib sinash, ularni qimmatli xoʻjalik belgilari boʻyicha oʻrganish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega boʻlgan vazifalardan hisoblanadi.

**Materiallar va uslublar.** Tadqiqot materiallari sifatida ozuqabop ekinlarning mahalliy va xorijiy nav, namunalari qoʻllanildi. Ilmiy tadqiqotlarda dala, laboratoriya tajribalari, fenologik kuzatuvlar umumqabul qilingan uslubiy qoʻllanma va urugʻlikning sifat koʻrsatkichlari OʻzDSt 2823:2014 dan foydalanildi.

**Natijalar va munozara.** Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti tajriba dalasida ozuqabop ekinlarning 20 ta mahalliy va xorijiy nav, namunalarni sinash uchun 4 ta takrorlanishda ekib oʻrganildi. Agrotexnik tadbirlar bir xil qoʻllanildi. Barcha namunalar boʻyicha fenologik kuzatuvlar olib borildi. Bir qator qimmatli xoʻjalik belgilari boʻyicha oʻrganildi.

Ushbu namunalar bir oʻsimlikdagi barglar soni, barg uzunligi va eni kabi koʻrsatkichlar boʻyicha oʻrganildi va ularning oʻrtacha koʻrsatkichlari hisoblab chiqildi. Ozuqabop ekinlarning ushbu belgilar boʻyicha oʻrtacha koʻrsatkichlari natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan. Ozuqabop ekinlarning mahalliy va xorijiy nav, namunalarni ayrim qimmatli xoʻjalik belgilari boʻyicha baholash natijalari

T/r	Ekinturi, navi	Oʻrtacha koʻrsatkichlar		
		Bir oʻsimlikdagi barglar soni, dona	Bar guzunligi, sm	Barg eni, sm
1	Oqjoʻxori –Susu duragayi	17,8	73,9	7,0
2	Oqjoʻxori – yangi namuna	13,6	73,8	8,0
3	Afrika qoʻnogʻi Nis-1103	17,7	73,5	4,5
4	Oqjoʻxori -NutriTopStar	18,6	107,3	4,5
5	Oqjoʻxori -Hunnigreen duragayi	17,8	139,2	10,1
6	Oqjoʻxori -Nudan duragayi	18,6	93,0	3,8
7	Oqjoʻxori – yangi tizma	17,5	62,7	6,7
8	Oqjoʻxori -Revolution duragayi	18,1	73,7	5,2



**“OROL BO‘YI SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIK EKINLARI  
SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA AGROTEKNOLOGIYALARIDA  
DOLZARB MUAMMOLAR VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI”  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**



9	Oqjo‘xori + sudan o‘ti-NsDjin	14,8	72,9	5,6
10	Oqjo‘xori -AF-7102 duragayi	6,9	76,7	7,0
11	Oqjo‘xori -Nis-1501 duragayi	14,3	86,3	12,3
12	Oqjo‘xori -Nis-1502 duragayi	13,9	85,5	12,6
13	Oqjo‘xori o-Jambostar duragayi	20,7	81,0	6,6
14	Oqjo‘xori –Macia duragayi	10,7	72,1	10,4
15	Oqjo‘xori –Kirgiziya navi	15,8	51,9	7,2
16	Oqjo‘xori – yangi tizma	17,7	66,5	13,0
17	Oqjo‘xori –Zumbra duragayi	10,0	66,3	11,0
18	Oqjo‘xori –Santinel duragayi	10,9	88,2	11,4
19	Oqjo‘xori o-Biyanka duragayi	5,7	52,8	4,7
20	Oqjo‘xori -AF-8301 duragayi	8,9	56,1	6,3

O‘lchov va kuzatuvlarga ko‘ra bir o‘simlikdagi barglar soni 5,7 donadan 20,7 donagacha, bitta barg uzunligi 46,9 sm dan 139,2 sm gacha, bitta barg eni 3,8 sm dan 13,0 sm gacha oraliqda bo‘lganligi kuzatildi. Jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rishimiz mumkinki, bir o‘simlikdagi barglar soni bo‘yicha yaxshi ko‘rsatkichlar oqjo‘xorining Jambostar, Hunnigreen, Nudan duragaylarida, barg uzunligi bo‘yicha yaxshi ko‘rsatkichlar NutriTopStar, Hunnigreen duragaylarida va barg eni bo‘yicha yaxshi ko‘rsatkichlar oqjo‘xorining mahalliy yangi tizmasida, Nis-1501, Nis-1502 duragaylarida bo‘ldi.

**Xulosa va tavsiyalar.** Olib borilgan tadqiqotlar natijasida olingan natijalarga asoslanib shunday xulosa qilish mumkinki, sinalgan nav, namunalar ichida bir o‘simlikdagi o‘rtacha barglar soni oqjo‘xorining Jambostar, Hunnigreen, Nudan duragaylarida ko‘proq bo‘ldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. B.D.Allashov, M.X.Zulfikarov, M.N.Sattarov. Primary seed production of fodder crops. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science 614 (1), 012160 <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1755-1315/614/1/012160>
2. B.D.Allashov Milliy genbankdan olingan oqjo‘xori namunalarini ayrim qimmatli xo‘jalik belgilari bo‘yicha o‘rganish. 2024Ж. Science and innovation. Tom 3. №Special Issue 47. 574-579 b.
3. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari. O‘zPITI, Toshkent. 2007, 147 b.